



## O'ZBEK TILIDA IQTISODIYOTGA OID TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA QO'LLANILISHI

**Ergasheva Jasminabonu**

Samarqand iqtisodiyot va servis institute talabasi

**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbek tilida iqtisodiyotga oid terminlarning shakllanishi va qo'llanilishi. Bundan tashqari mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tibor, iqtisodiy munosabatlarda chet tillarini bilishning zaruriyligi, iqtisodiy neologizmlarning qay tarzda qo'llanilishi haqida yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** XXI asr, diplomatik iqtisodiy munosabatlar, termin, neologizmlar*

**Kirish:** Bugungi kunda butun dunyoda fan-texnika rivojlanayotgan bir davrda albatta xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tibor kundan kun ortmoqda. "Ozbekiston Respublikasida xorijiy tillarni organishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tartiblari togrisida "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bunga yaqqol misoldir.

Hozirda chet tillarini bilish nafaqat filologlar uchun, balki barcha soha vakillari uchun juda ham zarur bo'lib kelmoqda. Qaysi sohada ish yurituvchi bo'lsangiz ham, albatta, aynan XXI asrda kamida 2-3tacha xorijiy tillarni bilish zamon talabi bo'lib kelmoqda. Hozirgi O'zbekistonda ona tili bilan birga ingliz va rus tillarini bilish mutaxassislik sohasida katta yordam beradi va sohadagi yutuqlarni o'rganishni kengaytiradi. Ayniqsa, ba'zi bir holatlarda ya'ni bir davlat boshqa davlat bilan iqtisodiy shartnoma imzolayotganda yoki turli xil diplomatik munosabatlar, xalqaro aloqalarni o'rnatish paytida xorijiy tillarni biladigan soha vakillariga zarurat tug'iladi. Ma'lumki har qanday jamiyatda iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Shu sababli iqtisodiyotga tegishli so'z va terminlar aniq, lo'nda va mantiqan asoslangan bo'lmog'i lozim. Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi iqtisodiyot sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, buning natijasida yana bir qancha iqtisodiyot sohasida yangi neologizmlarni yuzaga kelishiga olib keladi. Umuman baynalmilal iqtisodiy so'zlarni o'zbek tiliga qabul qilishda ko'p jihatlarni e'tiborga olmoq



lozim. Iqtisodiy termin o'zbek tiliga kirib kelayotganda uning quyidagi jihatlariga e'tibor berish kerak bo'ladi:

termining o'zbek tilini tovush tizimiga mosligiga;  
uning o'zbekcha muqobili bor yo'qligiga; kalka yoki tarjima qilish zaruriyatiga;  
iqtisodiy termining mazmuniga;  
uning sodda va ravonligiga;  
mohiyatiga va o'ng'ayligiga.

Boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib kelayotgan iqtisodiy terminlar dastlab mutaxassislar va atama muhokamasidan o'tmog'i, so'ngra Oliy Majlisning tegishli qo'mitasidan tasdiqlanmog'i lozim.

Ana shundagina bunday iqtisodiy terminlar qonuniy kuchga kiradi va ularni bemalol qo'llash mumkin. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin bosqichma- bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tib bormoqda. Jamiyatda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari joriy qilinmoqda.

**ASOSIY QISM:** Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi neologizmlar yanada ko'paymoqda. Bularning muayyan qismi ona tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirib berilmoqda, ma'lum qismi esa baynalmilal o'zlashma sifatida ishlatilmoqda. Iqtisodiyot terminlarining o'zbek tilida qo'llanilishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

1. Ko'plab terminlar tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirilgan. Bunda bir guruh terminlar o'zbek tilidagi tayyor muqobillari bilan berilmoqda, ma'lum qismi esa tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o'zbek tili qonun-qoidalari asosida yasalmoqda. Masalan: auktsion-kimoshdi, makler-dallol, kommersant-tijoratchi, komissionie voznagrajdeniya-vositachilik haqi, ekonomika-iqtisodiyot, predyavitelya-oq chek, shaxssiz aktsioner-aktsiyador, biznesmen-bizneschi va hokazolar.

2. Yana bir usul dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalmilal terminlarning o'zbek tiliga ham o'z holicha o'zlashtirilishidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlamoq zarurki, yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga ham o'zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o'z asl holicha ishlatiladi va bu qo'llanish dunyo bizneschilari axborot almashinuvi uchun qulay. Masalan: korrupsiya, kredit, eksport, grant, auditor, avizo, valyuta, lizing, menedjer, litsenziya, biznesmen,



norezident. Quyida iqtisodiyot sohasida keng ishlatiladigan bir nechta terminlarni keltiramiz. Ularning ba'zilari o'zbekcha so'zlar bo'lsa, ba'zilari esa boshqa tillardan bevosita kirib kelib tilimizda qo'llanilmoqda.

**AUKSION** - (lat.auction) - 'kimoshdi' savdosi, ochiq savdo qilish. Bu savdo xizmati mahsulotni eng yuqori narxga kotargan xaridor sotib oladi.

**BANK** - yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtiga qarab pul mablag'larini bir davolash yiguvchi va uzluksiz aylanib turushini taminlovchi, korxonalariga va umuman pulga tekshirishga kredit, suda qilingan, tomonlar ishlash tolovi va boshqa hisob-kitob ishlarida vositachilik qilib turuvchi, oltin vachet el valyutasi bilan bogliq operatsiyalarni bajaruvchi kredit-moliya muassasi pul qoyuvchilarga malumot foizini tolash, qarz olganlardan davomiy foiz stavkasini undiradi va ana shu foizlar bo'yicha farq qiladigan bank foydasi mavjud.

**BIZNES** - (inglizcha business-ish, faoliyat, mashgulot ) boylik, foyda orttirishga yonaltirilgan ish, faoliyat. Biznes xo'jalik yuritish kolamiga qarab yirik, o'rta va mayda turlarga bolinadi. Xodimlarning ortacha soni va mahsulot hajmiga qarab ajratiladi.

**BIZNESMEN** - (inglizcha business-ish, man-odam)- biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs, korchalon.

**BIRJA** - (goll.beurs, nem. Borse-hamyon)

1) mahsulot, valyuta va qimmatbaho qog'ozlarni ayirboshlashda, hisob va malumot xizmatlarini amalga oshirishda faol qatnashuvchi tashkilot. Xizmat ko'rsatgani uchun vositachilik yig'imini oladi;

2) birja savdo-sotigi boladigan joy.

**BOJ**- (arab.-olpon, soliq) - bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib otiladigan tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho qog'ozlardan undiriladigan pul yigimlari.

**BROKER** - (ingl.broker)- mahsulot, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta sotuvchilar va xaridorlar ortasidagi rasmiy dallol. O'zi yoki mijozlar nomidan kelishuvlar, shartnomalar tuzish huquqiga ega shaxs.

**VALYUTA** - ( ital. valuta. lat. valere- qadrlanmoq, qiymat )- mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qogoz, pul)ga tenglashtirilgan to'lov vositalari. **VEKSEL** - (nem.Wechsel, aynan-ayirboshlash)- qarz majburiyatlari xususida yozma holda berilgan maxsus ko'rinishdagi qimmatbaho qogoz qarz bergan tomon vekselda ko'rsatilgan muddat tugashi bilan qarzni talab qilish huquqiga ega. **IMPORT** - (lat.importo-kiritaman)



1) mamlakat ichiga foydalanish yoki sotish uchun chetdan olib kelingan xorijiy mahsulotlar;

2) kapital xorijdan mamlakatga kelayotgan kapital (kredit, zayom va boshqa);

3) chetdan olib kelingan mahsulotlarning umumiy soni va qiymati.

**INVESTISIYA** - (nem.investitlion, lat. investire- kiyintirmoq) investor tomonidan biror bir faoliyatni amalga oshirish uchun kapital mablag'larni, sarmoyalarni joriy qilish, foyda olish maqsadida sarf qilish mamlakat ichida (ichki investisiya) va xorijiy mamlakatlarda (tashqi investisiya) amalga oshirilishi mumkin. Moliya qimmatbaho qog'ozlarni xarid qilish, pul mablag'larini jamg'arish va boshqalarni, real moddiy ishlab chiqarishga sarflangan sarmoyalarni o'z ichiga oladi.

**IPOTEKA** - (yunon.hypotheke-garov)- qarz, kredit olish uchun biror-bir muayyan kochmas mulkni (yer, imorat va hokazo) garovga qoyish.

**XULOSA:** Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining takomillashuvi natijasida xususiy mulkchilikning barcha shakllari rivojlanib, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochilmoqda, natjada chet davlatlar bilan oldi-sotdi ya'ni export-import ishlari amalga oshirilmoqda bu borada esa chet tilini bilish juda muhim, xususan iqtisodiy neologizmlarni tushunish har birimizga kerak. Bu borada Respublikamizning Prezidentining nutqini esga olaylik: "Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga jahon andozalari darajasi bilim olgan zakovatli, har tomonlama barkamol, dunyoqarashi keng milliy kadrlarni tayyorlashda chet tilining xizmati katta".

### **Foydalanilgan materiallar:**

1. Akobirov S. Til va terminologiya. -T, 1968.
2. Anikina A. Iqtisodiy atamalar lug'ati inglizcha-ruscha. T., 1993.
3. Bektemirov X., E.Begmatov. Mustaqillik davri atamalari. -T.,2002.
4. Barotov.Z Iqtisodiy matnlarda neologizmlarning tarjima qilinishi. S., 2013.
5. Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B. 106.
6. Yuldasheva, D. (2022). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS'COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH (ON THE EXAMPLE OF TOURISM DIRECTIONS). Science and innovation, 1(B7), 1498-1501.



7. Yuldasheva, D. (2021). PHILOSOPHY OF LIFE-AS A DRIVING FORCE. Theoretical & Applied Science, (6), 633-635.
8. Yuldasheva, D. A. (2021). Some essential trends in teaching second language vocabulary. Academic research in educational sciences, 2(6), 782-786.
9. Yuldasheva, D. (2022). The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
10. Yuldasheva, D. B. (2021). Approach is the main strategic direction which defines the components of teaching the Uzbek language. Science and World. International scientific journal, (2), 90.
11. Dilnoza, Y. (2019). About Conducting Research on the Subject of Ornithological Terms in Uzbek Language. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(7), 53-61.
12. Yuldasheva, D. (2022). THE EMERGENCE OF NEW ECONOMIC WORDS AND PHRASES IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE MODERN UZBEK LANGUAGE. 湖南大学学报 (自然科学版), 49(10)
13. Yuldasheva, D. B. (2023). NAVOIYNING SHE'RIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATIGA DOIR. Academic research in educational sciences, 4(Conference Proceedings 1), 174-179.
14. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). OLIY O 'QUV YURLARIDA MASHG 'ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O 'RNI. PEDAGOGS jurnali, 25(1), 52-55.
15. Yuldasheva, D. (2022). FORMATION OF ECONOMIC TERMINOLOGY- THE CURRENT STAGE OF DEVELOPMENT OF THE TERMINOLOGY OF THE UZBEK LANGUAGE. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
16. Yuldasheva, D., & Karshieva, M. (2022, January). PERTINENT TO THE ROLE OF SCIENTIST WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF THE SUBJECT UZBEK LINGUISTICS. In Archive of Conferences (pp. 61-62).
17. Yuldasheva, D. (2020, December). Anthropocentric approach to children's speech study. In Конференции.